

Fotima ILXOMJONOVA

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLİYAVIY MENEJMENT TIZIMINI SAMARADORLIGI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimining mazmun va mohiyati, faoliyat samaradorligi tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, moliyaviy menejmentning aksiyadorlik jaimyatidagi funktsiya va vazifalari atroflicha bayon etilgan, tijorat banklarining moliyaviy ko`rsatkichalari tahlillar asosida keng o`rganilgan hamda zaruriy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar. Aksiyadorlik jamiyati, moliyaviy menejment, moliyaviy boshqaruv, samaradorlik, rentabellik, sanoat kooperatsiyasi, moliyaviy menejer, aylanma mablagʻlar, investitsion qaror, dividend, tijorat banklari, investitsiya, ROE, ROA, ROI.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Аннотация. В данной статье анализируется содержание и сущность системы финансового управления в акционерных обществах, а также эффективность деятельности. Также подробно описаны функции и задачи финансового менеджмента в акционерном обществе, на основе анализа широко изучены финансовые показатели коммерческих банков и разработаны необходимые предложения.

Ключевые слова. Акционерное общество, финансовый менеджмент, финансовый менеджмент, эффективность, рентабельность, промышленная кооперация, финансовый менеджер, оборотный капитал, инвестиционное решение, дивиденды, коммерческий банкинг, инвестиции, ROE, ROA, ROI.

ANALYSIS OF THE EFFICIENCY OF THE FINANCIAL MANAGEMENT SYSTEM IN JOINT STOCK COMPANIES

Abstract. This article analyzes the content and essence of the financial management system in joint-stock companies, as well as the efficiency of activity. Also, the functions and tasks of the financial management in the joint-stock company are described in detail, the financial indicators of commercial banks are widely studied based on the analysis, and the necessary proposals are developed.

Keywords. Joint stock company, financial management, financial management, efficiency, profitability, industrial cooperation, financial manager, working capital, investment decision, dividend, commercial banking, investment, ROE, ROA, ROI.

Kirish.

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida, davlat va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirilishida aksiyadorlik jamiyati shaklidagi kompaniyalarning o'rnini beqiyosdir. Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning asosiy muammolaridan hisoblangan "resurslarni cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi"[1] barcha yo'nalishlardan moliyaviy resurslarni nazoratga olishning muhimligini anglatadi. Shu o'rinda, qayd etishimiz joizki, moliyaviy menejment yoki moliyaviy boshqaruv umumiy menejmentning bir yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida milliy aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentini takomillashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida "2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish"[2] kabi vazifalar belgilab olingan bo'lib, unda aksiyadorlik jamiyatlarining o'rnini yuqori hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Moliyaviy menejment moliyaviy resurslar, investitsiyani oshirish va kapital hajmini o‘stirishga yo‘naltiriladi deyiladi ayrim adabiyotlarda. Moliyaviy menejmentning umumiy ko‘rinishi moliyaviy resurslar harakatini boshqarish kabidir. Iqtisodchi olim C.Paramasivan qayd etishicha “Moliyaviy menejment umumiy boshqaruvning ajralmas qismidir. Bu kompaniyadagi moliyaviy menejerlarning vazifalari bilan bog‘liq va ushbu tizimi qay darjada samarali ishlasa faoliyat barqarorligi shu darajada uzoq bo‘ladi”[3]. Fikrimizcha, menejment umumiy boshqaruvni ifodalasa, aynan pul oqimlarini va moliyaviy resurslarni boshqarish moliyaviy menejmentning vazifasidir.

Xorijlik iqtisodchilardan H.Baker, G.Powell o‘zining ilmiy tadqiqotlarida “Moliyaviy menejmentni tushunish har qanday biznes tashkilotining muvaffaqiyatining asosiy tarkibiy qismidir. Moliyaviy menejment firmaga qiymat qo‘shadigan biznes qarorlariga e‘tibor qaratadi”[4] deya ta’kidlashadi. Moliyaviy menejment nazariya va amaliyoti nafaqat biznes yurutuvchi subyektlarga balki oddiy fuqarolar uchun ham muhim bo‘lib, moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va nazoratini o‘rgatadi.

Jahon Bankining ma’lumotlarida qayd etilganidek, “Moliyaviy tizim deganda tashkilot rahbariyati tomonidan moliyaviy nazorat va hisobdorlikni amalga oshirish uchun foydalaniladigan jarayonlar va protseduralar tushuniladi. Ushbu chora-tadbirlar daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarga ta’sir qiluvchi operatsiyalarni qayd etish, tekshirish va o‘z vaqtida hisobot berishni o‘z ichiga oladi”[5]. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyalashtirish va moliyaviy rejani ishlab chiqishda moliyaviy menejment asosiy o‘rin egallaydi. Kompaniyada har qanday jarayon, avvalambor, moliyaviy rejalashtirishdan boshlanadi va bunda moliyaviy menejment usullari muhim ahamiyatga egadir.

Iqtisodchilardan J. William Petty, Sheridan Titman, Arthur J Keown, Peter Martin, John D Martin, Michael Burrowlar tomonidan nashr ettirilgan kitobda qayd etilishicha “Moliyaviy menejment odamlar va korxonalar investitsiyalarini qanday baholashlari va ularni moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb qilishlarini o‘rganishdir. Yirik va o‘rta kompaniyalarda asosiy siyosiy qarorlar va strategiyalar nuqtai nazaridan firma egalarini (aksiyadorlarini) ifodalovchi direktorlar kengashlari bo‘lishi mumkin, ammo kundalik operatsiyalar firmani boshqarish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish uchun menejerlardan foydalanishni talab

qiladi. Bunday menejerlardan biri “moliyaviy menejer”, firmada moliya funksiyasini boshqarish va nazorat qilish uchun tayinlangan shaxsdir”[6]. Shuningdek, iqtisodchi olimlar moliyaviy menejmentning katta va kichik kompaniyalar uchun ahamiyatini, moliyaviy menejerlarning vazifalarini keng hamda aniq bayon etganlar. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment operativ boshqaruv xususiyatiga ega hisoblanadi.

Iqtisodchi olim A.M.Usenko “moliyaviy munosabatlarni turli jarayon va tavakkalchilikka yo‘naltirilgan yondashuvlarga muvofiq boshqarish vositalari va usullarini samarali tanlash korxonaga bozordagi boshqa korxonalar bilan moliyaviy munosabatlarni oqilona shakllantirishga imkon berishini” qayd etib o‘tgan. Fikrimizcha, moliyaviy menejment barcha sohalarda pul oqimlarni samarali boshqarishni o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi bilimlar majmuassi hisoblanadi.

Iqtisodchilardan Sharan “moliyaviy qarorlarni 4 turga bo‘ladi va ularni quyidagicha ifoda etadi: 1. Investitsion qaror deb nomlanuvchi investitsiya takliflarini tanlash; 2. Aylanma mablag‘lar to‘g‘risidagi qaror deb nomlanuvchi aylanma mablag‘larga bo‘lgan talablarni aniqlash; 3. Moliyaviy qaror deb ataladigan aktivlarni moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb qilish; 4. Dividend to‘lash uchun foydani taqsimlash, dividend to‘g‘risidagi qaror deb ataladi. Ushbu to‘rtta qaror korporativ moliyaning predmetini tashkil qiladi, ammo yuqoridagi qarorlarni qabul qilishga yordam beradigan moliyaviy tahlil, rejalashtirish va nazorat vositalari kabi moliyaviy vositalar ham moliyaviy menejment mavzusining ajralmas qismi hisoblanadi”[8]. Ushbu jihatlarni inobatga olganda moliyaviy menejment moliyaviy qarorlarni qabul qilishda va ularni nazoratini olishda yaxlit tizim sifatida e‘tirof etsak bo‘ladi.

Iqtisodchi olimlardan yana biri - S.V.Galiskayaning fikricha, “moliyaviy menejment korporatsiyalarning aktivlarini va ularni shakllantirish manbalarini boshqarishga bag‘ishlangan ilm bo‘lib ta‘riflanadi”[9]. Ilmiy izlanishlarimizdan ayon bo‘lmoqdaki, har bir kompaniya faoliyat davomiyligi yoki rentabelligi uchun moliyaviy menejment samaradorligini ta‘minlash hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Maqolada ilmiy abstraktsiyalash, tasviriy statistika, ekspert baholash, guruhlashtirish, dinamik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment - bu kompaniyaning strategik maqsadlariga erishish uchun moliyaviy resurslarini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va monitoring qilish jarayoni hisoblanib, quyidagi jihatlari bilan umumiy menejmentdan ajralib turadi:

Birinchidan, moliyaviy rejalashtirish: byudjetlashtirishda muayyan davr uchun daromad va xarajatlarni rejalashtirish amalga oshirilsa, prognozlash orqali tarixiy ma'lumotlar va bozor tendensiyalari asosida kelajakdagi moliyaviy natijalarni baholanadi.

Ikkinchidan, pul resurslarini boshqarish: qisqa muddatli va uzoq muddatli kapital ya'ni biznes yuritishning turli bosqichlari uchun qancha mablag' kerakligini aniqlash asosiy vazifalardan bo'lsa, kapital tarkibi shakllantirish yoki o'z va qarz kapitali o'rtasidagi muvozanat, shu jumladan aksiyalar chiqarish va kreditlar olish samarali tashkil etish moliyaviy menejmentga borib taqaladi.


To'rtinchidan, moliyaviy tahlil aniq va qisqa fursatda amalga oshirish. Moliyaviy hisobotlar tahlilida kompaniyaning moliyaviy holatini tushunish uchun balans, daromadlar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni har oy yoki chorakda amalga oshirib borish faoliyat bo'yicha umumiy holatni bayon etib turadi. Shuningdek, ko'rsatkichli tahlili, jumladan, likvidlik, rentabellik, aylanmani baholash uchun turli moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanish moliyaviy menejmentning zaruriyatini ifodalaydi.

Oltinchidan, rentabellikni boshqarish moliyaviy menejment tizimining yana bir asosiy elementi hisobalanadi. Xarajatlar va raqobatni hisobga olgan holda mahsulot yoki xizmatlar narxlarini optimallashtirish orqali foydani yuqorilash, xarajatlarni nazorat qilish, bunda, albatta, ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni optimallashtirish hozirgi kundagi aksiyadorlik jamiyatlarida eng ko'p e'tibor qaratiladigan jihatdir va bunda moliyaviy menejment modellari yordamga keladi.

Yettinchidan, dividend siyosatini aksiyadorlik jamiyatlarida samarasini har tomonlama oshirish. Foydani aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash va kompaniyaga qayta investitsiya kiritish strategiyasini belgilash orqali investorlar manfaatlarini va kompaniyaning moliyaviy holatini ijobiy tomonga siljitish moliyaviy menejmentlarning doimiy nazoratida bo'ladi.

Yuqoridagi jihatlar aksiyadorlik jamiyatlariga o'z resurslarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va strategik maqsadlarga erishishda yordam beradi. Moliyaviy menejment investitsiyalarni jalb qilish, barqarorlikni saqlash va aksiyadorlar uchun kompaniya qiymatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi.


Bizga ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment va moliyaviy boshqaruv tushunchasi o'zaro almashtirib ishlatiladi, lekin moliyaviy boshqaruv bu o'z navbatida boshqaruv hisobini ifodalaydi ya'ni buxgalteriyaga xos tizim hisoblanadi. Namunaviy kompleks vazifalar quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy menejmentning kompleks vazifalari[10]

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarida aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatida moliyaviy menejmentning asosiy komponentlari ya'ni operatsion, loyiha va strategik menejment tizimlari aks etirilgan. Jumladan, moliyaviy menejmentda operativ jarayonlar sifatida qisqa muddatli mablag'larni samarali boshqarish bo'lsa, strategik vazifalar uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Keltirilgan kompleks vazifalar moliyaviy boshqaruv jarayonining faqatgina umumiy mazmunini ifodalaydi va uni raqamli transformatsiyalash faoliyat rentabelligini ta'minlaydi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida

moliyaviy menejment samarasini quyidagi rasm orqali ifoda etsak bo'ladi (2-rasm).




2-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment samarasi[11]

Yuqoridagi 1.2-rasm ma'lumotlarida kompaniya moliyaviy menejment tizimi orqali erishishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar bayon etilgandir. Moliyaviy menejment, kapital harakati boshqarilishi, uni ishlab chiqarish quvvatini, keyinchalik esa tushum oshirishga yo'naltirishi mumkin; moliyaviy resurslar harakatini boshqarilganda tannarxni pasaytirish va kapitalni ko'paytirish uchun ulardan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqot davomida "Kapitalbank", "Hamkorbank" va "Milliy bank"lardagi yillik hisobotlar, banklar tomonidan beriladigan dividendlar va rivojlanish strategiyalari tahlil va analiz qilindi. Bu hisobotlar, banklarning moliyaviy holatini, daromadlarni, xarajatlarini, aktivlarni va passivlarni ko'rsatadi. Hisobotlar bankning moliyaviy natijalarini va faoliyatining o'zgarishlarini tushuntiradi. Banklar tomonidan berilayotgan dividendlar, aksiyadorlarga bankning daromadlari asosida taksimlanadigan moliyaviy to'lovlardir. Bu dividendlar, bankning moliyaviy holatini va daromadlarini o'z ichiga olganligini ko'rsatadi. Rivojlanish strategiyalari, bankning uzun muddatli maqsadlari va rivojlanishning belgilangan yo'nalishlari bo'yicha o'rganildi. Bu strategiyalar, bankning kengayishini, yangi bozorlar va xizmatlar yaratishni, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni va boshqarish jarayonlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari banklarda moliyaviy resurslarni boshqarish, moliyaviy statistikalar, natijalar va

xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradigan usullar ko'rib chiqildi. Bu usullar banklarning moliyaviy faoliyatlarini samarali boshqarish, natijalarni yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.


Moliyaviy natijalar tahlili, banklarning moliyaviy faoliyatlarini hisob-kitob qilish, natijalar tahlilini o'tkazish va natijalarni yaxshilashga yordam beradi. Tadqiqot davomida "Kapitalbank", "Hamkorbank" va "Milliy bank"lardagi yillik hisobotlar, banklar tomonidan beriladigan dividendlar va rivojlanish strategiyalari tahlil qilindi. Bu hisobotlar, banklarning moliyaviy holatini, daromadlarni, xarajatlarini, aktivlarni va passivlarni ko'rsatadi.



3-rasm. "Kapitalbank" ATB moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, mlrd. so'mda[12]

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, "Kapitalbank" ATB 2021, 2020 va 2019 yillarining moliyaviy natijalarini tahlil qilishimiz mumkin. To'plangan ma'lumotlar jami daromad, jami xarajatlar, jami foizsiz daromad, jami foizsiz xarajatlar va sof foyda bo'yicha statistikalarini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda


jami foiz daromadi 1 239 333 215 ming so‘m bo‘lgan, bu 2020-yilga qaraganda 23.5% o‘shishni ko‘rsatadi. 2019-yilga nisbatan esa, 81.6% o‘shishni ifodalaydi. 2021-yilda jami xarajatlar 914 077 096 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich o‘tgan 2020-yilda 746 239 575 ming so‘m va 2019-yilda esa xarajatlari 481 830 414 ming so‘mni tashkil etgan. Bu, jami daromad o‘shishi va shuningdek xarajatlarining ham o‘shishini ifodalaydi. Jami foizsiz daromad 2021-yilda 545 911 469 ming so‘m bo‘lib, 2020-yilga nisbatan 9.2% o‘shib, 2019-yilga nisbatan esa 47.8% o‘shishni ko‘rsatadi.. 2021-yilda jami foizsiz xarajatlar 151 384 975 ming so‘m bo‘lgan.



4-rasm. “Hamkor bank” ATB moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, mlrd. so‘mda[13]

Yuqoridagi 2.2-rasmda “Hamkor bank” ATBning 2021-yilda jami foiz daromadi 1 627 923 020 ming so‘m bo‘lib, 2020-yilda bu ko‘rsatgich 1 549 287 724 ming so‘mni, 2019-yilda esa 1 423 447 703 ming so‘m bo‘lganligi ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatgichlar bankning yillik daromadini ifodalaydi va 2021-yilda daromadning oldingi yillardan oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Jami foiz xarajatlari esa 2021-yilda 845 224 274 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-

yilda bu ko'rsatgich 879 560 888 ming so'mni, 2019-yilda esa 883 388 759 ming so'mni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Jami foizsiz daromadlar 2021-yilda 1 586 246 441 ming so'mni tashkil etgan, bu ko'rsatgich 2020-yilga nisbatan katta o'sib, 2019-yilga nisbatan esa 183.8% o'sishni ko'rsatdi. Bu o'sish, kompaniya kapitalini oshirish va yangi daromad manbalari bilan investitsiyalarni ko'rsatishi mumkin. Jami foizsiz xarajatlar esa 2021-yilda 1 017 004 007 ming so'm bo'lib, 2020-yilda 234 887 268 ming so'mni, 2019-yilda esa 195,113,518 ming so'm bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.



5-rasm “Milliy bank” ATB moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot[14]

Yuqoridagi ma'lumotlarda “Milliy bank” ATBning 2021-yilda jami foiz daromadi 6 320 657 849 ming so'm bo'lib, 2020-yilda bu ko'rsatgich 5 921 774 493 ming so'mni, 2019-yilda esa 4 375 719 317 ming so'm bo'lganligi ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatgichlar bankning yillik daromadini ifodalaydi va 2021-yilda

daromadning oldingi yillardan oshganligini ko'rishimiz mumkin. Jami foiz xarajatlari esa 2021-yilda 3 464 017 403 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatgich 3 283 379 922 ming so'mni, 2019-yilda esa 2 830 151 891 ming so'mni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Jami foizsiz xarajatlar esa 2021-yilda 276 631 748 ming so'm bo'lib, 2020-yilda 367 091 356 ming so'mni, 2019-yilda esa 238 802 773 ming so'm bo'lganligini ko'rishimiz mumkin SOF foyda 2021-yilda 983 326 435 bo'lib, 2020-yilga nisbatan 8.55% o'sib, 2019-yilga nisbatan esa 5.75% o'sishni ko'rsatadi.

Xulosa

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning aksiyadorlar uchun qiymatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bunga moliyaviy faoliyatni rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish, shuningdek, resurslar va risklarni boshqarish uchun strategik qarorlar qabul qilish kiradi.

Tahlillar natijasida ayon bo'ldiki, rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar aktivlar va loyihalarga sarmoya kiritish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun investitsion jozibadorlikni baholash va risklarni tahlil qilish usullaridan keng foydalanadilar. Ushbu jihatlar aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari, xususan, ROE, ROA, ROI'larga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Moliyaviy menejment tizimiga ta'sir etuvchi omillarni xususiy tijorat banklarda ekonometrik modellar orqali baholashda sof foyda va boshqa ko'rsatkichlarni tanlab olgan holda, jismoniy shaxslar bo'yicha kredit resurslarini optimallashtirish lozimligini aniqladik.

Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi sug'urta kompaniyalarida moliyaviy menejmentning kompleks vazifalari tarkibi operatsion qarorlar qabul qilish, investitsion qarorlar qabul qilish, moliyaviy qarorlar qabul qilishdan iborat bo'lib, u qay darajada optimal va samarali tashkil etilgan bo'lsa, shu darajada tizimli risklarni oldini olish hamda faoliyat rentabelligini oshirish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Xulosa qilganda, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va aksiyadorlar uchun ularning qiymatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mankiw N. G., Taylor M. P. Economics. – Cengage Learning EMEA, 2020. 527 p.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 11-sentyabrda PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmoni.
3. Paramasivan C. Financial management. – New Age International, 2009. 264 p.
4. Baker H. K., Powell G. Understanding financial management: A practical guide.—John Wiley&Sons, 2009. 450 p.
5. <https://pubdocs.worldbank.org/en/152991470659228735/Finace-Manual-SDF.pdf>
6. Petty J.W., Titman S., Keown A.J., Martin P., Martin J.D., Burrow M. Financial management: Principles and applications. Pearson Higher Education AU. 2015 y. - 714 p.
7. Усенко А. М. Диагностика финансовых отношений экономических субъектов в системе финансового менеджмента. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Орел: «ТГУ», 2006. – 48 стр.
8. Sharan Fundamentals of Financial Management. London.: Pearson education 2008, 524 p.
9. S.V.Galitskaya. Moliyaviy menejment. Moliyaviy tahlil. Korxona moliyasi: M.: Eksmo, 2009.-19 b.
10. Muallif ishlanmasi
11. Muallif ishlanmasi
12. <https://www.kapitalbank.uz/uz/shareholders/financial-indicators/accounting/> asosida muallif tomonidan tayyorlandi
13. <https://hamkorbank.uz/upload/iblock/7dc/7dc856c95ee7c4c8a98f2e8ae52786bb.pdf> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
14. <https://nbu.uz/uz/about-bank/annual-reports/> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.